

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

12-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 12 (4) - 2024*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2024**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00-TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00-FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00-YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

#### *22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00-SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog‘lanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Turg'unov Sherzod Abduvositovich*

FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida) ..... 13-19

*Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li*

SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI ..... 20-23

*Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich*

XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOYIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR ..... 24-32

*Соъуб Раъноб*

KAMBAFALLIK VA UNI QISQARTIRISH MUAMMOLARI ..... 33-42

*Abdimov O'zbek Bektemirovich*

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI ..... 43-48

*Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI ..... 49-53

*Temirova Munira*

ESKI TERMIZ SIMOVKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR ..... 54-58

*Sattorova Shahlo*

SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI ..... 59-63

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna*

KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI ..... 64-72

*Tаниев Аҳмаджон Баҳромович*

TUURIZM, GLOBALLASHUV VA SAVDO: ULARNING ATROF-MUHQITGA TA'BSIRI ..... 73-82

*Ходжаниязов Элбек Сардоревич*

XORAZM VILOYATIDA TUURIZM TRANSPORTI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH OMIILLARI TAHLILI ..... 83-93

*Raximov Bahromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi*

O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI ..... 94-99

*Ahmedov Adham Djalolovich*

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH ..... 100-105

*Ablazov Nurillo Xusanboyevich*

QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 106-112

<i>Абдурахманов Мухторали</i> ЎУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA .....	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHIDDLAR .....	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI .....	132-135
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPTION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI .....	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Ғайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ҒОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ .....	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI .....	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI .....	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI .....	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI .....	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN .....	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA .....	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT .....	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR .....	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI .....	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i> O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIGA BO'LGAN MUNOSABAT .....	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdulkarimovna</i> BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI .....	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i> IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI .....	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i> MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA .....	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI .....	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI .....	222-228
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Berдиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i> СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ .....	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i> БУРҲОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ .....	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “KO'K” SIFAT BELGISINING SEMANTIК XUSUSIYATLARINING TADQIQI .....	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i> HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI .....	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i> ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА .....	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i> XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI .....	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLILI .....	264-268
<i>Davronov Shexroz Abrorovich</i> OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI .....	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI .....	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i> NUTQIY AKTLAR TASNIFI .....	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i> К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ .....	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i> O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR .....	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI .....	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i> INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	310-315
<i>Тухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i> ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i> XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI .....	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI .....	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i> LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i> O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI .....	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i> INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI .....	343-348
<i>Атаназарова Шохида Бахрамовна</i> РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА) .....	349-353
<i>Matadqulova Kamila Abduxoliqovna</i> ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS .....	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i> SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI .....	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i> RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI .....	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i> ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА» .....	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i> ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE .....	391-396
<i>Umurzakova Kommuna Xursanovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQIDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI .....	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i> ONA TILI DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI .....	403-406

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Itomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’МИНЛОВЧИ ТО’ЛОВ – МАЖБУРИЯТЛАРНИ ТА’МИНЛАШНИНГ ЯНГИ УСУЛИ СИФАТИДА .....	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНИНГ ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ .....	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ .....	437-445
<i>Миқитов Вобур</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To‘uchiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS .....	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO‘LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI .....	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farhod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE .....	479-484
<i>Юсупов Ўктамбой Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ .....	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA MOLIVAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI .....	509-520
<i>To‘uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS .....	521-528

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI .....	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIV TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI .....	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшпулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ .....	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH .....	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV .....	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE .....	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ .....	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> МАТЕМАТИКА FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI .....	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAHMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....	591-595
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI .....	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLIL) .....	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ .....	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIV TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....	620-526

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i> МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА ХОРИЙ ТАЖРИБАСИНИ ҚО'ЛЛАШ БО'ҲИЧА МАВЖУД ТА'ЛИМ ТАЛАБЛАРИНИНГ ТАСНИФИ YUZASIDAN ТАҲЛІЛЛАР .....	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i> O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI .....	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i> JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI .....	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Низора</i> ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ .....	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i> МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ .....	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i> ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ .....	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i> РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ .....	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i> ТА'ЛИМДА RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH .....	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i> МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'ЛИМДА МАТЕМАТИКА MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI .....	673-678

**Received:** 30 November 2024  
**Accepted:** 5 December 2024  
**Published:** 15 December 2024

*Article / Original Paper*

## **HISTORY OF THE JOYBOR XUJA'S DURING THE SHAIBANID PERIOD**

**Sattorova Shahlo,**

Navoi State University,

"Methods of teaching social and humanitarian subjects (history)"

2<sup>nd</sup> year master's student

**Abstract.** This article provides a detailed account of the constructive activities of the Juybar Khojas, one of the most influential and prestigious families in the Central Asian khanates during the 16th–17th centuries, within the Bukhara Khanate. It highlights their efforts in building mosques, madrasas, educational institutions, and restoring existing structures.

**Key words:** Shaybanid Dynasty, Gaukushon Madrasa, Juybor Khwajas, Khoja Kalonkhwaja, Abdullah Khan II, Chor-Bakr, Sumitan Village, Khoja Sa'd, Florian Schwarz, Khoja Zaynuddin, Kundal.

## **SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI**

**Sattorova Shahlo,**

Navoiy Davlat universiteti

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix)" ta'lim yo'nalishi

2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XVI-XVII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida eng nufuzli va ta'sirli xonadonlardan biri bo'lgan Jo'ybor xo'jalarining Buxoro xonligida olib borgan bunyodkorlik faoliyati, ular tomonidan masjid va madrasalar, ta'lim muassasalarini barpo etish va mavjudlarini ta'mirlash borasidagi amalga oshirilgan sa'y-harakatlari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Shayboniylar sulolasi, Gavkushon madrasasi, Jo'ybor xo'jalari, Xoja Kalonxo'ja, Abdullaxon II, Chor Bakr, Sumitan qishlog'i, Xoja Sa'd, Florian Shvars, Xo'ja Zayniddin, kundal.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N08>

Shayboniylar sulolasi vakillari Buxoro xonligini idora etgan davrda davlatning ijtimoiy va madaniy hayotiga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, ular Movarounnahrda madaniyat va ta'limning taraqqiy etishi o'z hissalarini qo'shgan hukmdor sulolalaridan biri sifatida tarix sahifalarida o'z o'rinlariga ega. Shayboniylar davrida madrasalardagi ta'lim jarayonlari va yangi madrasalarning bunyod etilishi sulola vakillari hamda siyosiy arboblardan tomonidan moliyalashtirildi. Shuningdek, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lgan dinga e'tibor qaratgan holda masjidning holatini yaxshilash, yangi masjidlar barpo etish kabi ishlarga ham bosh bo'lishdi. O'z-o'zidan ma'lumki, ushbu davrda jamoat binolari asosan, masjid va madrasalarni barpo etish va qayta ta'mirlash davlat xazinasidan katta mablag'ni talab etar, bu esa o'z

navbatida soliqlarning miqdoriga ham ta'sir etmay qolmagan. Ushbu vaziyatda xonlar yetakchi sulola vakillarining mablag'lari evaziga quriladigan jamoat binolaridan katta manfaatdor bo'lganliklari aniqdir. Mazkur davrda katta e'tibor hamda siyosiy kuchga ega bo'lgan Jo'ybor xo'jalari tomonidan bir necha madrasalar barpo etilgan va ta'mirlashga muhtoj bo'lganlari ta'mirlangan. Ular bu kabi bunyodkorlik ishlarini xalq orasida obro'-e'tiborlarini saqlab qolish va oshirish shuningdek, diniy ta'limni rivojlantirish maqsadida amalga oshirganlar.

Shayboniylar davrida katta mavqeda bo'lgan Jo'ybor xo'jalarining tashabbusi bilan barpo etilgan eng yirik madrasalardan biri Gavkushon madrasasi – o'z davrining yetakchi o'quv markazlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy muassasa nomi Xoja Kalonxo'ja nomi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu madrasa hijriy 977-yil shavvol oyida (1570-yil mart-aprel) Jo'ybor shayxlaridan Xoja Kalonxoja nomi bilan mashhur Nosiriddin Xoja Sa'd tomonidan qurilgan[1]. Manbalarda ta'kidlanishicha, umrining oxirlarida Xoja Islom Buxoro shahrida bir madrasa qurishni ixtiyor etib, shaharning Gavkushon mahallasidan bir qit'a yer sotib oladi. Farzandi Xoja Sa'dni chaqirib, unga 70 ming "Iskandarxoniy" nuqra tanga beradi va bu mablag'ni madrasa qurilishiga sarf etishni buyuradi. Xoja Sa'd otasi vafotidan so'ng Gavkushon madrasasi qurilishini poyoniga yetkazadi. Natijada talabalar ta'lim olishiga mo'ljallangan go'zal bilim dargohi Gavkushon madrasasi barpo etiladi[2]. Madrasa bizgacha saqlanib qolgan.

Buxoro shahridagi yetakchi ilmiy muassasalardan biri Gavkushon madrasasi-Gavkushon guzarida, Qarshi darvozasi yo'lida joylashgan bo'lib, o'ttiz bitta hujradan iborat hisoblanadi. Madrasa besh burchakli tarhga, hujralari esa to'g'ri bo'lmagan geometrik shaklda qurilgan. Uning burchaklarida darsxona va masjid mavjud. Fasadni tiklashda proporsiyaga amal qilingan, biroq ko'chaga qaragan ayvonlarning o'lchamlari har xil, o'ziga xos yechimda ishlangan. Peshtoqning yonidagi ayvonlar kichik, o'rtadagi ayvonlar katta va chekkadagi ayvonlarning o'lchami o'rtacha qabul qilingan. Gavkushonda oxundning o'rinbosari "alam" dars o'tgan[3].

Shayboniylar davri arxitekturasi yorqin namunasi bu Chor Bakr ansambli hisoblandi. Ushbu majmua o'sha davrning yirik madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Chor Bakr madrasasi- Buxoro shahrining g'arb tomonidan, 5 km uzoqlikda joylashgan Sumitan qishlog'idagi hududda barpo etilgan[4]. Jo'ybari shayxlarining shahardan tashqaridagi nekropoli — Chor Bakr qurilgan. Sumitan qishlog'i Xoja Abu Bakr Sa'd mozori oldiga Buxoro xoni shayboniy Abdullaxon II tomonidan 1559-yilda xonaqoh, masjid, madrasa va katta bog'dan iborat me'moriy majmua barpo etilgan[5], keyingi asrlarda yana qo'shimcha binolar qurilib, atrofi bog'larga aylantirilgan.

Ziyoratgohning bosh kompleksi 1560-1569-yillarda barpo etilgan[6]. Chor Bakr me'moriy majmuasidagi madrasa oliy toifadagi madrasalardan biri hisoblangan. Majmuadagi qadamjoning maydoni 40 gektar bo'lib, qabrison qismi 12 gektar maydonga ega. Mazkur me'moriy majmua uchun Abdullaxon II 70 ming tilla sarflagan[7]. Majmuadagi xonaqoh bo'lib, uch tomonida eshik mavjud. Bino peshtoqi uch qavatli, ikki hujradan iborat bo'lib, gumbazli xona va peshtoqdan iborat[8]. Xonaqoh qibla tomonida mehrob mavjud. Xonaqoh gumbazi Arki duzi uslubida qilingan. Xonaqohning peshtoqida "Baqara" surasining 61-62-oyatlari keltirilgan. Peshtoqining 20 metr, poydevori esa 12 metrdan tashkil topgan[9].

Chorbakr me'morlik ansambli Xuroson yo'li yoqasidagi eng muhtasham bino hisoblangan. U madrasa, masjid, xonaqohdan iborat bo'lib, uni barpo etish g'oyasi aslida Jo'ybor xo'jalarining yirik vakili Xoja Islomda paydo bo'lgan edi. Bu haqda Badriddin Kashmiriyning

ayni paytda yagona nusxada mavjud bo'lgan "Ravzat ar-rizvon" qo'lyozma asarida quyidagi ma'lumotlar bor: Xoja Islom muridlaridan biri bo'lmish Marv hokimi Poyanda Muhammad sulton XVI asr 50-yillarida Shayx Muhammad Marviyni sovg'a-salomlar bilan o'z piri huzuriga jo'natadi. Muridi oldidan kelgan elchini Xoja Islom izzat-ikrom bilan kutib olgandan so'ng, uning hamrohligida Buxoroning Jo'ybor guzaridan chiqib, o'z aqrolari xoki joylashgan Sumitan (hozirgi Chorbakr) mavzeyiga ziyoratga keladi. Bu davrda bu yerda hali masjid, xonaqoh yo'q edi. Ziyorat ado etilgach, Xoja Islom o'z mehmoni Shayx Muhammad Marviyni qo'lidan yetaklab, unga bobokalonlari qabri atrofida kelgusida bog', masjid, xonaqoh barpo qilajagini aytadi va ularning qurilishi mo'ljallanayotgan joylarni birma-bir ko'rsatadi. Shundan so'ng bir necha yil o'tib, Abdullaxon Buxoroni egallaydi (1557-yil) va Sumitan mavzeida o'z piri Xoja Islom rejalashtirgan binolarni qurishga kirishadi[10]. Natijada 1559-1570-yillar mobaynida masjid, madrasa va xonaqohdan iborat ajoyib bir me'moriy ansambl vujudga keldi.

Mazkur ansablni faqatgina mahalliy tadqiqotchilar uchungina emas balki xorij tadqiqotchilari uchun ham Shayboniylar davri madaniyati hamda siyosiy hayotiga haqida keng ko'lamlil ma'lumot beruvchi obyekt hisoblendi. Bizga ma'lumki, bu davrda madaniyatning rivojlanishiga yirik xonadon vakillari ham o'zlarining moliyaviy yordamlari bilan hissa qo'shgan. Xususan, Jo'ybor xo'jalari yuqoriga tilga olingan madrasadan tashqari bu majmuaga ham o'z moliyaviy hissalarini qo'shganlar. Xorijiy tadqiqotchilar ham ushbu jarayonlarni yoritib berishgan. Jumladan, nemis olimi Florian Shvars tadqiqotlari bunga yaqqol misol bo'ladi. U Chorbakr me'morlik majmui va majmua joylashgan Sumitan mavzeyi hamda shular bilan bog'liq Jo'ybor xojalari faoliyatini o'z ilmiy nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yoritib bergan [11]. Buxoro yaqinidagi Chorbakr (Sumitan) obidasi qurilishiga sarf etilgan mablag'larning bir qismi shu xonadon hissasiga to'g'ri kelishini tadqiqotchi ta'kidlab o'tadi.

Jo'ybor xo'jalari o'z mablag'lari hisobidan faqatgina jamoat binolari xususan, madrasa va masjidlarni yangitdan barpo etib qolmaygina mavjud bo'lgan madrasa va masjid binolarini ta'mirlashga ham yordam bergan. Masalan, Xoja Islomning to'ng'ich farzandi va vorisi Xoja Sa'd ham o'z otasi singari Buxoro va uning atrofida turli obidalar qurish uchun mablag' ajratadi va o'z davrining yetakchi markazi bo'lgan Buxoro shahri infrastrukturasi o'zgartirishga yordam beradi. Korxonaga guzaridagi hovuz yaqinida 1567-yil uning tomonidan pishgan g'ishtdan masjid, Kalobod guzarida ikki qavatli madrasa qurildi (madrasa XX asr 50-yillari oxirlarida buzib tashlangan). Xoja Sa'd bunyodkorlik faoliyatida ta'mirtalab binolarni qayta tiklash muayyan o'rin egallaydi. Shayboniy Abdulazizxon davrida Buxoro shahrining Xiyobon guzarida jome' masjidi qurilgan bo'lib, XVI asr 70-yillariga kelib u ta'mirga muhtoj bo'lib qoldi. Xoja Sa'd mablag'i hisobidan masjid ta'mirlangan. Shayboniy Ubaydullaxonning onasi tomonidan Shohrud arig'i bo'yida qurilgan masjid ham eskirib qolganligi bois, 1585-yil Xoja Sa'd tashabbusi bilan ta'mirlandi. Somjin (hozirgi Rometan) tumanidagi bir masjid ham 1583-yil to'la qayta qurildi[12].

Butun Markaziy Osiyoda saqlangan eng ko'hna mahalla masjidlaridan biri XVI asrga oid Masjidi Balanddir. Odatdagi sinchli mahalla masjidlardan farqli o'laroq u, istisno tariqasida, baland tosh supada pishiq g'ishtdan qurilgan, bu hol uning uzoq vaqt yaxshi saqlanishiga imkon bergan. XVI asr boshlariga oid Xoja Zayniddin masjid-xonaqosi me'morchilik va bezatilish uslubi jihatidan yuqorida ko'rib o'tilgan Masjidi Balandga juda o'xshash. Lekin undan farqi shundaki, bu bino xonaqoh va mahalla masjidi vazifalarini bajarib, ko'p xonali va gumbazli bo'lgan. Bino joylanishiga ko'ra majmuada ichki hovli hujralari ko'p bo'lib, hovli o'rtasida katta

hovuz joylashgan. Gumbazli zalning ichki qismi naqshlarga juda boy. Uning paneli XVI asr naqshlarining noyob namunasi[13].

Xo'ja Zayniddin masjidi 1555-yilga qadar qurilgan[14]. Xo'ja Zayniddin majmuasi pishiq g'isht, yog'och, tosh va ganchdan bunyod etilgan. Masjid-xonaqoh peshtoqgumbazli katta xona va 5 kichik hujralar hamda unga ikki tomondan tutash ayvondan iborat, hovuz hovlining katta qismini egallagan; xonaqohning janubiy tomonidagi ravoqlardan biriga Xo'ja Zayniddin qabri joylashtirilgan. Xonaqohning bosh tarzi peshtog'ida naqsh qoldiqlari saqlangan. Xona gumbazi murakkab qalqonsimon bag'allar yordamida asosiga tayangan, gumbaz ichi 32 ga bo'linib, ular hallangan mayda gullar bilan bezatilgan, gumbazning quyi qismi muqarnaslar qatori bilan hoshiyalangan. Xona devorlaridagi taxmonlar hamda mehrobga yarim gumbaz shaklida muqarnaslar ishlangan. Devor izoralari sirkori parchinlardan murakkab handasiy shakllar, o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan; gumbaz, taxmonlar, mehrob va g'arbiy devordagi yozuvlar qatori kundal usulida bajarilgan[15]

Yuqori aytib o'tilgan Masjidi Baland va Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqolarining ziynat ishlarida Temuriylar davriga xos "kundal" zarhal naqshlardan ham foydalanilgan[16]. Bundan ko'rinib turibdiki, Temuriylarning me'morchilik an'analari bu davrda ham o'z qiymatini o'zgartirmagan.

1562-yilda Xoja Islom tomonidan Buxoro shahri ichidan o'tadigan Shohrud arig'ining o'ng qirg'og'ida yirik jome masjidi quriladi. Ayni paytda bu masjid "Xoja Kalon masjidi" deb yuritilib, Gavkushon madrasasining so'l tomonida joylashgan. Masjid o'z davrining yirik sajdagohi sanalib, kattaligi jihatdan Masjidi Kalondan so'ng ikkinchi o'rinda turgan. Uning mehrobi oltin suvi yuritilgan naqshlar, shuningdek, Qur'on suralari bilan bezatilgan edi. Masjid hozir ham mavjud[17].

Buxoroda 1551-1554-yillarda hukmronlik qilgan Muhammadyor sultonning onasi tarafidan Qorako'lda jome' masjidi barpo etilgan edi. XVI asr 80-yillariga kelib, bu masjid butunlay yaroqsiz bo'lib qoldi. Xoja Sa'd bu masjidni ham o'z mablag'i hisobiga qayta barpo etdi. Shuningdek, 1571-yil Buxoro yaqinidagi Samonchuq (hozirgi Jondor tumanida) qishlog'ida Xoja Sa'd tomonidan hayit namozlari o'qiladigan yirik jome' masjidi qurildi. Xoja Sa'd bunyodkorlik faoliyati Buxoro va uning atrofidagi mavzellar bilan chegaralanib qolmay, Koson, Marv, Qarshi viloyatlarini ham o'z ichiga olardi. Kosondagi Xoja Ahror masjidi, Marvdagi Mir Alisher Navoiy masjidi va Amir Muhammad So'fi xonaqohlari ta'mirtalab bo'lib qolganda Xoja Sa'd sa'y-harakatlari bilan bu obidalar qayta ta'mirlandi. "Ravzat ar-rizvon" asarida keltirilishicha, Mirzo Olmuhammad orqali Xoja Sa'd Marvga Mir Alisher masjidini ta'mirlash uchun oltin jo'natgan[18].

XVI asrning 80-yillarida Buxoro yaqinidagi Sumitan mavzeyida Mo'mini Arslon madrasasi mavjud bo'lib, u ta'mirga muhtoj holatda edi. Madrasa ta'miri ishlarini Xoja Sa'd o'z zimmasiga olib, uni asosigacha buzdirib qayta tiklaydi. Jo'ybor xojalarining ko'zga ko'ringan vakillari bo'lmish Xoja Islom va Xoja Sa'd tomonidan Buxoro shahri va uning tevaragida qator obidalar qurildi, eskirib, ta'mirga muhtoj bo'lib qolganlari esa qayta ta'mirlandi. Yuqorida tilga olingan "Ravzat ar-rizvon" qo'lyozma asarida bu haqda qimmatli va ko'pchilikka noma'lum ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur asarni tadqiq qilish natijasida quyidagi ma'lumotlarni aniqlashga muvassar bo'ldik: Xoja Islomning mablag'lari hisobiga 1558-yil Zandanidagi jome' masjidi to'la qayta quriladi va kengaytiriladi. Xoja Islom buyrug'i bilan qurilish ishlarini uning safdoshlaridan biri Mavlono Yormuhammad boshqargan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xonligida jamoat binolarini ta'mirlash va qurilish ishlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish ishlari faqatgina xon tomonidan emas balki jamiyat hayotida katta o'rin va martabaga ega bo'lgan Jo'ybor xo'jalari tomonidan ham amalga oshirilgan. Natijada, Buxoro xonligining madaniy hayoti ma'lum darajada taraqqiy etgan.

### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Жуманазар, Абдусаттор. Бухоро таълим тизими тарихи . Тошкент: Akademnashr, 2017.-222
2. Тўраев Ҳалим .Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: 2007 у. -В 246
3. М. М. Vaxitov, Sh. R. Mirzayev. Me'morchilik. – Toshkent: Tafakkur,2010-204-bet
4. Жуманазар, Абдусаттор. Бухоро таълим тизими тарихи . Тошкент: Akademnashr, 2017.-525
5. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ, Марказий Осиёда Ислом маданияти. – Т .: «Шарқ», 2005.-346 б.
6. М. М. Vaxitov, Sh. R. Mirzayev. Me'morchilik. – Toshkent: Tafakkur,2010-211-bet
7. Ҳусенов С, Ражабова И. *Чор Бакр*. Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001 — 144-bet.
8. Ражабов Қ, Иноятов С. *Бухоро тарихи*. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2016 — 460-bet.
9. Ҳусенов С, Ражабова И. *Чор Бакр*. Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001 — 144-bet.
10. Тўраев Ҳалим .Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: 2007 у. -В 245
11. Florian Schwarz. From scholars to saints. The Bukharan Shaykhs of Juybar and the ziyarat to the Four Bakr // Изистории культурного наследия Бухары. – Сб. Статей Бухарского музея. Вып. 6. – Бухара, 1998. – Б. 36-49.
12. Тўраев Ҳалим .Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: 2007 у. -В 247
13. Halim To'raev. BUXORO TARIXI. –Buxoro:Durdona,2020– В.149.
14. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ, Марказий Осиёда Ислом маданияти. – Т .: «Шарқ», 2005.-344 б.
15. Halim To'raev. BUXORO TARIXI. –Buxoro:Durdona,2020– В.149.
16. Бухоро шарқ дурдонаси./ Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.98.
17. Тўраев Ҳалим .Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: 2007 у. -В 246
18. Тўраев Ҳалим .Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent: 2007 у. -В 248

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali  
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli  
guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.  
**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog‘lanish uchun telefonlar:**  
(99) 602-09-84 (telegram).